

TOG'AY MUROD ASARLARIDA SHAXS RUHIYATI: TARIXIY XOTIRA VA MA'NAVIY INQIROZ FOJIASI

Safarova Farangiz Shukur qizi

Qarshi davlat universiteti 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20234299>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" hamda "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlaridagi bosh qahramonlar ruhiyati va jamiyatdagi ziddiyatlar psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Asarlardagi Dehqonboy va Botirali obrazlari orqali mustabid tuzum davrida milliy o'zlikdan ayirish, xotirasizlik fojiasi, shuningdek, shaxsning jamiyatdagi ma'naviy qashshoqlik, munofiqlik va adolatsizliklar iskanjasidagi ruhiy iztiroblari ochib berilgan. Maqolada tarixiy xotiraning shaxs kamolotidagi o'rni va insonning ma'naviy inqirozga yuz tutish sabablari adabiy-psixologik dalillar yordamida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Tog'ay Murod, "Otamdan qolgan dalalar", "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi", shaxs ruhiyati, tarixiy xotira, ma'naviy inqiroz, ekzistensial fojia, manqurtlashuv, mustamlaka psixologiyasi.

THE PSYCHOLOGY OF PERSONALITY IN THE WORKS OF TOGHAY MUROD: THE TRAGEDY OF HISTORICAL MEMORY AND MORAL CRISIS

Annotation. This article analyzes the psychology of the main characters and societal conflicts in the novels "Fields Left from My Father" ("Otamdan qolgan dalalar") and "One Cannot Die in This World" ("Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi") by the People's Writer of Uzbekistan, Toghay Murod, from a psychological perspective. Through the characters of Dehqonboy and Botirali, the tragedy of being deprived of national identity and losing memory during the totalitarian regime, as well as the spiritual suffering of the individual in the grip of societal moral impoverishment, hypocrisy, and injustice, are revealed. The article highlights the role of historical memory in personal development and the causes of human moral crisis using literary and psychological evidence.

Keywords: Toghay Murod, "Fields Left from My Father", "One Cannot Die in This World", psychology of personality, historical memory, moral crisis, existential tragedy, mankurtization (loss of memory), colonial psychology.

KIRISH

O'zbek nasrining yetakchi namoyandalardan biri, iste'dodli adib Tog'ay Murod ijodi milliy adabiyotimizda inson ruhiyatining eng teran, ziddiyatli va og'riqli nuqtalarini badiiy tadqiq etgani bilan alohida ajralib turadi. XX asr o'zbek adabiyotida shaxs fojiasini, uning jamiyat, tarix va murakkab ijtimoiy-siyosiy tuzum oldidagi oqibatlari psixologik aniqlik bilan tasvirlashda adibning o'ziga xos betakror uslubi mavjud. Yozuvchi o'z asarlarida faqatgina ma'lum bir davrning ijtimoiy manzarasini chizish bilan cheklanmaydi, balki shu davr ichidagi insonning ichki kechinmalarini, uning tafakkur tarzi va ma'naviy olamida yuz berayotgan fojeali evrilishlarni qalamga oladi. Xususan, adibning chop etilishi bilanoq adabiy jamoatchilik va kitobxonlar o'rtasida katta aks-sado bergan "Otamdan qolgan dalalar" hamda "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlari shaxs ruhiyatining yemirilishi, tarixiy xotiradan uzoqlashish va jamiyatdagi ma'naviy qashshoqlik muammolarini yoritgan monumental asarlar sanaladi.

Mustabid tuzum yillarida millat qadriyatlarining toptalishi, insonning o'z yerida qulga aylantirilishi va buning oqibatida yuzaga kelgan manqurtlik psixologiyasi ushbu romanlarning

tub mohiyatini tashkil etadi. Bu asarlar mantiqan bir-birini to'ldirib, o'zbek kitobxoniga milliy o'zlikni anglash va ma'naviy poklanish yo'lidagi ulkan ko'zgu vazifasini o'taydi. "Otamdan qolgan dalalar" romanida jismoniy va ruhiy qaramlikning ildizlari, insonning muayyan bir tuzum mashinasi ichida irodasiz qulga aylanib qolishi fojiasi ko'rsatilsa, "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" asarida ana shu mutelik va qadriyatsizlik avj olgan muhitda sof vijdon bilan yashashning naqadar azobli ekani, shaxsning chuqur ekzistensial inqirozi aks ettiriladi. Tarixiy xotiraning yo'qotilishi shaxsni qanday qilib tanazzul jarligiga qulatilishini tushunish, shuningdek, atrofdagi munofiqlik, adolatsizlik iskanjasida yashashga majbur bo'lgan insonning ruhiy iztiroblarini tahlil qilish bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini aslo yo'qotmagan. Zero, chinakam adabiyotning bosh vazifasi insonni o'ziga tanitish, uning qalbida mudrab yotgan milliy g'urur va insoniy tuyg'ularni uyg'otishdir. Ushbu maqolada Tog'ay Murod qahramonlari – Dehqonboy va Botirali obrazlari misolida shaxs psixologiyasi, uning ongi va shuurida yuz bergan halokatli o'zgarishlar, shuningdek, shaxs hamda jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar psixologik nuqtai nazardan atroflicha va yaxlit tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tog'ay Murod asarlari, xususan, "Otamdan qolgan dalalar" va "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlari o'zbek adabiyotshunosligida ko'plab olimlar tomonidan turli jihatlardan o'rganilgan. Ushbu maqolani tayyorlashda mavzuning nazariy-metodologik asosi sifatida, asosan, ikki minginchi yillardan keyin nashr etilgan va zamonaviy adabiyotshunoslikning yangicha qarashlarini o'zida mujassam etgan fundamental manbalarga ustuvorlik berildi.

Xususan, adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurovning jurnallarda e'lon qilingan yirik maqola va tadqiqotlarida adib asarlaridagi ruhiyat tasviri, milliy xarakterning yorqin ifodasi hamda qahramonlar ichki olamidagi fojiaiylik chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, Qozoqboy Yo'ldoshevning "Yoniq so'z" nomli yirik monografik asarida Tog'ay Murod romanlarining badiiy-uslubiy o'ziga xosligi, asar tili va qahramonlar ruhiyatini ochishdagi betakror yozuvchi mahorati, adibning so'z qo'llashdagi mislsiz san'atkorligi alohida ta'kidlangan. Hamidulla Karimovning "Istiqlol davri adabiyoti" kitobida esa mustamlaka davri asoratlari hamda nasrimizda tarixiy xotira masalalarining badiiy in'ikosi keng yoritilgan. Shu bilan birga, S. Xolmuhammad o'g'li tomonidan nashrga tayyorlangan "Tog'ay Murod zamondoshlari xotirasida" to'plamida adibning shaxsiy qarashlari, uning o'z qahramonlari taqdiriga bo'lgan munosabati va asarlarning yaratilish tarixi bilan bog'liq muhim ma'lumotlar keltirilganki, bu manbalar romanlarni psixologik hamda biografik jihatdan teranroq anglashga bevosita xizmat qiladi. Ko'rinib turibdiki, tadqiqotchilarimiz yozuvchi merosini keng ko'lamda o'rgangan bo'lsalar-da, har ikki romandagi shaxs psixologiyasining qullik, tarixiy xotirasizlik va jamiyatdagi ma'naviy emirilish kabi illatlar bilan uyg'unlikdagi fojiaiy oqibatlarini yagona integrativ yondashuv asosida qiyosiy o'rganish bugungi kun adabiyotshunosligining dolzarb vazifalaridan sanaladi. Tadqiqot jarayonida qo'yilgan maqsadga erishish va obyektidagi muammolarni har tomonlama haqqoniy yoritish uchun bir qator ilmiy metodlardan kompleks foydalanildi. Xususan, adabiy-tarixiy metod yordamida romanlarda tasvirlangan davrning ijtimoiy-siyosiy sharoiti, hukmron mafkuraning qahramonlar taqdiriga, ularning ongi va ijtimoiy holatiga ta'siri o'rganildi. Psixologik tahlil metodi tadqiqotning yetakchi usuli sifatida tanlab olinib, u orqali Dehqonboy va Botirali obrazlarining ichki kechinmalari, ularning ruhiyatida yuz bergan o'zgarishlar, isyon, qo'rquv va ruhiy tushkunlik kabi murakkab holatlar ilmiy diagnostika qilindi.

Qiyosiy-tipologik metod esa har ikki romandagi o'xshash va farqli jihatlarni, qahramonlarning jamiyatga, tarixga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini o'zaro paralellar o'tkazish orqali solishtirish imkonini berdi. Badiiy matnga chuqur kirib borish, xarakterlar mantig'ini yashirin psixologik detallar orqali ochib berishda germevntik tahlil tamoyillariga ham tayanildi.

Ushbu metodlarning uzviy tarzda qo'llanilishi asarlardagi badiiy to'qima zamiriga yashiringan ulkan ijtimoiy fojeani, inson tabiatining mutlaq emirilishini va xotirasizlikning inqirozli oqibatlarini psixologik qonuniyatlar doirasida to'laqonli yoritib berishga xizmat qildi.

NATIJARLAR

Tadqiqot jarayonida Tog'ay Murodning har ikki romani qahramonlari ruhiyati va ularning ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini chuqur tahlil qilish orqali bir qator muhim ilmiy-nazariy natijalarga erishildi. Eng avvalo, "Otamdan qolgan dalalar" romanida shaxs psixologiyasining emirilishi kutilmaganda, birdaniga yuz bermasligi, balki bu mudhish jarayon uzoq muddatli, ajdodlar qoniga tomchi-tomchi singdirilgan va tizimli zo'ravonlik siyosatining muqarrar oqibati ekanligi tasdiqlandi. Asar qahramoni Dehqonboy xarakterini tahlil qilish asnosida shunday qat'iy xulosaga kelindiki, mustabid tuzum qurboniga aylangan insonning eng katta va davosiz fojiasi – uning qul kabi ezilgani yoki jismoniy azob chekkanida emas, balki ana shu qullikni ongli ravishda qabul qilgani, mavjud ijtimoiy adolatsizlikni o'zining yozig'i, muqaddas hayotiy burchi deb bilishidir.

Tarixiy xotiradan mahrum qilingan, avlodlar zanjiridan uzib tashlangan shaxs psixologiyasi faqat tor doiradagi, ya'ni qorin to'yg'azish va tepada o'tirgan xo'jayinlari oldida xizmat vazifasini ortig'i bilan bajarish kabi ehtiyojlar bilangina chegaralanib qolishi ilmiy dalillandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yozuvchi asardagi dala obrazini shunchaki tirikchilik manbai, mehnat maydoni sifatida emas, balki insoniylik qiyofasini, or-nomus va g'ururni beshafqat kemiruvchi ruhiy zindon sifatida kashf etgan, buning natijasida avloddan avlodga o'tuvchi patologik qo'rquv hamda mutelik sindromi paydo bo'lishi yoritilgan.

O'z navbatida, "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romani tahlili shaxsning jamiyatdagi ma'naviy qashshoqlik sababli yuzaga keladigan ekzistensial inqirozini butunlay boshqa rakursdan ko'rsatib berdi. Asar bosh qahramoni Botirali ruhiyatini o'rganish natijasida shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatning eng yuqori, kritik nuqtasi – bu insoniy qadriyatlarning mutlaq yemirilishi va yuzsizlik, yolg'onning kundalik yashash tarziga aylanib qolishi ekanligi kuzatildi. Botiralining tinimsiz ichki iztiroblari, monologlari foni tahlil etilganda, ma'naviy tayanchlardan uzilgan muhitda sof vijdon va halollik bilan yashashga urinish insonni chuqur ruhiy izolyatsiyaga, atrof-muhitdan begonalashuvga hamda mutlaq yolg'izlikka mahkum etishi isbotlandi.

Uning jismonan hayot bo'la turib, ruhan tugatilganlik, ichki qotib qolish holatini boshidan kechirishi – adabiyotimizda shaxs inqirozining o'ta ta'sirchan va shafqatsiz psixologik modelidir. Natijada har ikki romanda aks etgan jarayonlarni qiyosiy o'rganish orqali shu narsa ma'lum bo'ldiki, yozuvchi bu asarlarda yaxlit bir fojining uzviy bog'liq bo'lgan ikki xil namoyon bo'lish shaklini yaratgan. Ya'ni, birinchi romanda tarixiy xotiraning yo'qotilishi va insonning manqurtlashuvi asosan jismoniy, ijtimoiy zo'ravonlik orqali sodir bo'lgan bo'lsa, keyingi romanda xuddi shu jarayonning mantiqiy hosilasi, inson ichki olamining tubsiz tanazzuli namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari Tog'ay Murod qahramonlarining xotirasizlik dardi va ruhiy iztiroblari orqali har qanday makon hamda zamonda inson erkinligini mahv etuvchi omillarning to'liq psixologik anatomiyasini yaratib berganini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Togʻay Murod romanlarida aks etgan shaxs ruhiyati va fojiasi muammosini tahlil qilish asnosida olingan natijalar oʻzbek adabiyotshunosligida mavjud boʻlgan ilmiy qarashlarni nafaqat tasdiqlaydi, balki ularni yangi psixologik va sotsiologik talqinlar bilan ham boyitadi. Ibrohim Gʻafurov, Umarali Normatov va Qozoqboy Yoʻldoshev kabi yirik adabiyotshunos olimlar adib ijodini asosan milliy xarakter kashfiyoti, badiiy tilning betakrorligi va syujet qurilishidagi oʻziga xoslik nuqtai nazaridan yuksak baholagan boʻlsalar, bizning ushbu tadqiqotimiz mazkur asarlar qahramonlari ongidagi mudhish evrilishlarni chuqur psixologik-ijtimoiy ziddiyatlar, xususan, qullik sindromi va ekzistensial boʻshliq nuqtai nazaridan yaxlit yoritishga qaratildi. Muhokamalar shuni aniq koʻrsatadiki, “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi Dehqonboy obrazi oʻzbek zamonaviy nasrida manqurtlik muammosining oʻziga xos milliy, ijtimoiy-maishiy va siyosiy koʻrinishi sifatida shakllangan.

Agar jahon adabiyotida, masalan, Chingiz Aytmatov asarlarida manqurt obrazining paydo boʻlishi oʻz xotirasidan oʻta shafqatsiz jismoniy zoʻravonlik – shiri kiydirish orqali mahrum etish usuli bilan tasvirlangan boʻlsa, Togʻay Murod qahramoni uzoq yillik mudhish ijtimoiy tuzum, muttasil davom etgan ogʻir va qadrsiz jismoniy mehnat, asriy maʼnaviy qadriyatlarining oyoqosti qilinishi hamda paxta yakkahokimligi siyosati tufayli asta-sekin, avlodlar osha maʼnaviy koʻrkar, yaʼni mute holatga keltirilgan. Bu murakkab jarayon shaxsning oʻz oʻtmishi, gʻururi va erkidan uzilib, faqat buyruqni bajaruvchi mutlaq itoatkor mexanizmga aylanishining yashirin psixologik mexanizmini juda haqqoniy koʻrsatib beradi. Shuningdek, tadqiqotimiz doirasida oʻrtaga tashlangan va ilmiy jamoatchilik eʼtiborini tortishi lozim boʻlgan muhim masalalardan yana biri – “Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi” romanidagi Botirali fojiasining shunchaki yakka shaxs emas, balki jamiyatdagi umumiy inqiroz bilan bevosita bogʻliqligi masalasidir. Odatda, adabiyotshunosligimizda bu asar asosan ziyolilarning qismati, tushkunlik va umidsizlik romani sifatida baholanadi. Biroq, bizning qiyosiy-psixologik yondashuvimiz natijalari shuni tasdiqladiki, Botiralinining ruhiy dardi shunchaki shaxsiy xarakterga, individual depressiyaga ega emas, balki bu – huddi Dehqonboylar avlodining qul qilingani, milliy xotiraning qasddan yoʻq qilingani oqibatida yuzaga kelgan ulkan ijtimoiy-maʼnaviy jarohatning yiringlab yorilishi hamda jamiyat sirtiga chiqishidir. Qahramonning adoqsiz ruhiy iztiroblari ildizi bevosita jamiyatdagi qon-qoniga singib ketgan yolgʻon, ochiq ikkiyuzlamachilik, maddohlik va xudbinlik kabi xatarli illatlarga borib taqaladi. Tarixiy oʻtmishi va milliyligidan judo qilingan, mutelik qon-qoniga singib ketgan muhitda sof vijdon bilan, insoniy qiyofani saqlab yashashning oʻzi eng ogʻir, yengib oʻtib boʻlmas azobga aylanadi. Demak, har ikki roman oʻzaro chambarchas uzviy dialektik aloqadorlikka ega boʻlib, ularning biri ikkinchisining bevosita sababi va mantiqiy oqibati sifatida namoyon boʻladi. Birinchi asarda insonning ijtimoiy-tarixiy ildizlaridan, kindik qoni toʻkilgan yeridan va asriy erkinligidan sunʼiy ajratilishi fojiasi butun dahshati bilan koʻrsatib berilsa, ikkinchi asarda aynan xuddi shu ayanchli oqibatning maʼnaviy, ruhiy va axloqiy inqirozi, ijtimoiy vakuumi yorqin boʻy koʻrsatadi. Bu qiyosiy yondashuv yozuvchining asl estetik maqsadini, yaʼni bitta oddiy insonning shaxsiy fojiasi orqali butun boshli bir xalqning boshidan kechirgan gʻoyat murakkab, qonli tarixiy yoʻlini va uning ogʻir psixologik asoratlarini yaxlit bir tizimda teran anglash imkonini beradi. Qayd etilgan ushbu xulosalar oʻzbek nasrida inson psixologiyasini oʻrganishning tamomila yangi ufqlari va qirralarini ochib beradi hamda kelgusida zamonaviy adabiyotshunoslik, amaliy psixologiya va sotsiologiya fanlari tutashuvida adib merosini yanada chuqurroq, integrativ tarzda tadqiq etish uchun ishonchli fundamental asos boʻlib xizmat qiladi.

XULOSA

Togʻay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” hamda “Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi” romanlarida shaxs ruhiyati va ijtimoiy-tarixiy fojia muammolarining tahlili shuni koʻrsatadiki, yozuvchi mustabid tuzumning inson maʼnaviyatiga yetkazgan eng ogʻir zarbalarini yuksak psixologik mahorat bilan ochib bergan. Ushbu tadqiqot natijasida kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, tarixiy xotiraning sunʼiy ravishda yoʻq qilinishi va shaxsning oʻz milliy ildizlaridan uzilishi faqatgina jismoniy mutelikni emas, balki chuqur maʼnaviy-axloqiy tanazzulni ham keltirib chiqaradi.

Dehqonboy obrazidagi qullik psixologiyasi millatning tarixiy xotirasiz qanday mudhish holatga tushishini isbotlasa, Botirali qismatidagi ruhiy iztirob va ekzistensial boʻshliq jamiyatdagi qadriyatlar emirilishining bevosita mantiqiy davomi sifatida namoyon boʻladi. Adib asarlarida tasvirlangan bu holatlar aslida yagona ijtimoiy kasallikning – insoniylik qiyofasi va erkning toptalishi fojiasining oʻzaro uzviy bogʻliq boʻlgan ikki xil koʻrinishidir.

Shaxsning oʻzligidan begonalashuvi hech qachon izsiz ketmaydi, u albatta avlodlar taqdirida va jamiyatning umumiy ruhiyatida oʻzining fojiali asoratlarini qoldiradi. Umuman olganda, Togʻay Murod oʻz romanlari orqali nafaqat oʻtmishdagi ijtimoiy adolatsizliklarni fosh etadi, balki bugungi avlodni hamisha ogohlikka, oʻzlikni asrashga hamda milliy gʻururni qadrlashga chorlaydi. Mazkur maqoladagi tahlillar oʻzbek nasrida inson ruhiyati va ijtimoiy muhit ziddiyatini oʻrganish yoʻlidagi muhim manba boʻlib, adib merosini kelgusida yana-da kengroq tadqiq etish zaruratini koʻrsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Gʻafurov, I. Togʻay Murod asarlari tahlili / I. Gʻafurov // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2005. – № 3. – B. 15-22.
2. Karimov, B. Ruhiyat alifbosi / B. Karimov. – Toshkent : Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 344 b.
3. Karimov, H. Istiqlol davri oʻzbek adabiyoti / H. Karimov. – Toshkent : Fan, 2006. – 195 b.
4. Murod, T. Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi : roman / T. Murod. – Toshkent : Sharq, 2001. – 288 b.
5. Murod, T. Otamdan qolgan dalalar : roman / T. Murod. – Toshkent : Oʻqituvchi, 2018. – 256 b.
6. Quronov, D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari / D. Quronov. – Toshkent : Akademnashr, 2018. – 480 b.
7. Xolmuhammad oʻgʻli, S. Togʻay Murod zamondoshlari xotirasida / S. Xolmuhammad oʻgʻli. – Toshkent : Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 272 b.
8. Yoʻldoshev, Q. Yoniq soʻz / Q. Yoʻldoshev. – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2006. – 412 b.